



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе .....	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi .....	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari .....	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv .....	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari .....	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari .....	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari .....	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish .....	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari .....	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari .....	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari .....	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar .....	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar .....	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari .....	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	





Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish .....	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit .....	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari .....	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции .....	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов .....	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета .....	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARIDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLAR METODIKASI

Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlardan foydalanish metodikasi yoritilgan. Unda kreativ tafakkurning pedagogik mohiyati, nostandart topshiriqlarning ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari hamda ularni qo'llash orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ijodiy, mantiqiy, muammoli va integrativ topshiriqlarning ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativ tafakkur, nostandart topshiriq, bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, metodika, ijodiy fikrlash, muammoli ta'lim, kasbiy tayyorgarlik.

**Abstract:** This article describes the methodology of using non-standard tasks in developing creative thinking among future primary education teachers. The pedagogical essence of creative thinking, the didactic possibilities of non-standard tasks in the educational process, and the development of students' independent thinking, creative approach, and problem-solving skills through the application of such tasks are analyzed. In addition, the importance of creative, logical, problem-based, and integrative tasks in improving the professional and methodological training of students majoring in primary education is substantiated.

**Key words:** creative thinking, non-standard task, future teacher, primary education, methodology, creative thinking, problem-based learning, professional training.

**Аннотация:** В данной статье раскрыта методика использования нестандартных заданий в развитии креативного мышления у будущих учителей начального образования. Проанализированы педагогическая сущность креативного мышления, дидактические возможности нестандартных заданий в образовательном процессе, а также вопросы развития самостоятельного мышления, творческого подхода и навыков решения проблемных ситуаций у студентов посредством применения таких заданий. Кроме того, обосновано значение творческих, логических, проблемных и интегративных заданий в совершенствовании профессионально-методической подготовки студентов направления начального образования.

**Ключевые слова:** креативное мышление, нестандартное задание, будущий учитель, начальное образование, методика, творческое мышление, проблемное обучение, профессиональная подготовка.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar, o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarning kirib kelishi hamda kompetensiyaviy ta'lim talablarining kuchayishi bo'lajak o'qituvchilardan nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, o'quvchilarning intellektual va kreativ salohiyatini rivojlantira olish kabi kasbiy sifatlarni ham talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs kamolotining dastlabki va eng muhim davri hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilarda bilim olishga qiziqish, mustaqil fikrlash, tasavvur qilish, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativ tafakkuri, metodik mahorati va nostandart pedagogik yechimlar topa olish qobiliyati ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning ilk bilim,



ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan birga, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi, mustaqil izlanishga undaydi, savol berish, taqqoslash, xulosa chiqarish va yangicha g'oya ilgari surishga yo'naltiradi. Bunday vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchining o'zi kreativ fikrlay olishi, ta'lim jarayonida an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, nostandart topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, ijodiy mashqlar va integrativ yondashuvlardan samarali foydalana olishi zarur.

Kreativ tafakkur shaxsning mavjud bilim va tajribalar asosida yangi g'oyalar ishlab chiqishi, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashishi, odatiy vaziyatlarda noodatiy yechimlar topishi hamda o'z faoliyatiga ijodiy munosabat bildirish qobiliyatidir. Pedagogik faoliyatda kreativ tafakkur o'qituvchining dars mazmunini boyitishi, o'quvchilar faolligini oshirishi, ularni erkin fikrlashga yo'naltirishi va ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etishida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda kreativ yondashuv o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va bilish ehtiyojlariga mos ta'limiy vaziyatlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, nostandart topshiriqlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishda samarali metodik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi, pedagogik vaziyatlarga yangicha yondashishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatida o'quvchilarning kreativ salohiyatini shakllantira olishiga zamin yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va metodika fanlarida keng o'rganilayotgan dolzarb muammolardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda kreativ tafakkur shaxsning yangicha g'oya yaratish, mavjud vaziyatga noodatiy yondashish, muammoni turli yo'llar bilan hal qilish va ijodiy natijaga erishish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha nafaqat ijodkorlik bilan, balki mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, tanqidiy yondashuv, muammoli vaziyatni anglash va innovatsion yechim topish jarayonlari bilan ham bevosita bog'liqdir.

Kreativ tafakkur muammosining nazariy asoslari xorijiy psixolog va pedagog olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, J. Guilford kreativlikni inson intellektining muhim tarkibiy qismi sifatida izohlaydi va uni divergent tafakkur bilan bog'laydi. Uning fikricha, kreativ shaxs bir muammoning bir nechta yechimini topa oladi, mavjud holatga turli nuqtayi nazardan qaraydi va odatiy fikrlash doirasidan chiqishga intiladi. E. Torrance esa kreativ tafakkurni aniqlash va baholash mezonlarini ishlab chiqib, ijodiy fikrlashda ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va ishlab chiqilganlik kabi belgilar muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi.

Pedagogik adabiyotlarda kreativ tafakkurni rivojlantirish o'quv jarayonining faol, muammoli va izlanishga yo'naltirilgan shakllari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. John Dewey ta'limni hayotiy tajriba, mustaqil fikrlash va amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, o'quvchi yoki talaba tayyor bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki bilimni izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amalda qo'llovchi faol subyekt bo'lishi lozim. Bu yondashuv bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishda nostandart topshiriqlardan foydalanish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi ham mazkur mavzuni yoritishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi qarashlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida talabaga uning mavjud bilim darajasidan biroz yuqoriroq bo'lgan, izlanish va aqliy faollikni talab qiladigan topshiriqlar berilishi lozim. Aynan nostandart topshiriqlar talabaning fikrlash doirasini kengaytiradi, uni mustaqil yechim izlashga undaydi va kreativ faoliyatga tayyorlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ularni ijodiy faoliyatga yo'naltirish, ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston pedagog olimlari tomonidan o'qituvchi shaxsining kasbiy kompetentligi, metodik mahorati, ijodiy yondashuvi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy-metodik ko'nikmalar, mustaqil qaror qabul qilish, o'quvchilar bilan ijodiy ishlash va ta'limiy vaziyatlarni loyihalash qobiliyatlari bilan ham belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid adabiyotlarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish jarayonlari, tasavvur va tafakkur rivoji, o'yin, ijodiy mashq, savol-javob, muammoli vaziyat va integrativ topshiriqlarning ahamiyati keng yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari obrazli, emotsional va amaliy faoliyatga moyil bo'lganligi sababli, ularni o'qitishda faqat reproduktiv mashqlar bilan cheklanib qolish ta'lim samaradorligini pasaytiradi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'quvchilarni faollashtiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga undovchi va ijodiy izlanishga yo'naltiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqish malakasiga ega bo'lishi zarur.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish jarayoni, avvalo, ularning kasbiy-metodik tayyorgarligi, mustaqil fikrlash darajasi, pedagogik vaziyatlarga ijodiy yondasha olishi hamda o'quv topshiriqlarini yangicha mazmunda loyihalash ko'nikmalari bilan bevosita bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik ta'lim jarayonida talabalar ko'pincha tayyor dars ishlanmalari, namunaviy mashqlar va an'anaviy metodik ko'rsatmalarga tayanadilar. Bunday yondashuv muayyan darajada nazariy bilimlarni mustahkamlasada, talabalarning ijodiy tafakkuri, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashuvi va mustaqil metodik qaror qabul qilish salohiyatini yetarlicha rivojlantira olmaydi.

Nostandart topshiriqlar esa bo'lajak o'qituvchilarni oddiy reproduktiv faoliyatdan ijodiy izlanish faoliyatiga olib chiqadi. Bunday topshiriqlar talabalardan birgina tayyor javobni emas, balki bir nechta muqobil yechimni izlashni, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashni, vaziyatga turli nuqtayi nazardan qarashni va o'z fikrini asoslab berishni talab qiladi. Shu bois nostandart topshiriqlar kreativ tafakkurni rivojlantirishda samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, nostandart topshiriqlarni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish uchun ularni tasodifiy emas, balki maqsadli, bosqichma-bosqich va metodik jihatdan asoslangan holda qo'llash zarur. Bunda quyidagi bosqichlar muhim ahamiyat kasb etadi:

*Birinchi bosqichda* talabalar kreativ tafakkur va nostandart topshiriqlarning mazmuni bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda ularga ijodiy fikrlash, muammoli yondashuv, divergent tafakkur, pedagogik vaziyatni tahlil qilish kabi tushunchalar izohlanadi.

*Ikkinchi bosqichda* talabalar tayyor nostandart topshiriqlarni tahlil qiladilar. Ular topshiriqning maqsadi, mazmuni, bajarilish usuli, o'quvchiga ta'siri va kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlaydilar.

*Uchinchi bosqichda* talabalar mustaqil ravishda nostandart topshiriqlar tuzadilar. Bu jarayonda ular boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, fan mazmuni, dars maqsadi va kutilayotgan natijalarni hisobga oladilar.

*To'rtinchi bosqichda* ishlab chiqilgan topshiriqlar muhokama qilinadi, tahlil etiladi va takomillashtiriladi. Guruhiy muhokama, o'zaro baholash va refleksiya orqali talabalarning metodik qarashlari boyiydi.

*Beshinchi bosqichda* nostandart topshiriqlar amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot yoki model-lashtirilgan dars jarayonida qo'llanadi. Bu bosqich talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, nostandart topshiriqlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan faolroq ishtirok etadilar. Ular savol berishga, o'z fikrini bildirishga, yechim izlashga, dars vaziyatlarini modellashtirishga va metodik materiallarni ijodiy loyihalashga ko'proq intiladilar. Ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o'yinli topshiriqlar yaratish va fanlararo mashqlar ishlab chiqish jarayonida talabalar ijodiy faolligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, nostandart topshiriqlarni muntazam qo'llash bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish bilan birga, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki kreativ tafakkurga ega o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishini uyg'ota oladi, darsni jonli va samarali tashkil etadi, har bir mavzuga yangicha yondashadi hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy izlanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish masalasi bugungi pedagogik ta'lim jarayonida nafaqat nazariy, balki amaliy-metodik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kelajakda o'quvchilarning ilk bilish faoliyatini tashkil etuvchi, ularning mustaqil fikrlashi, tasavvuri, nutqi, mantiqiy xulosalashi va ijodiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi asosiy pedagogik shaxs hisoblanadi. Shu bois bo'lajak o'qituvchining o'zida kreativ tafakkur yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, u o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil izlanish va yangicha fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantira olmaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar, metodik ko'rsatmalar va namunaviy dars ishlanmalari muhim o'rin tutadi. Biroq faqat tayyor namunalar asosida ishlash talabalarning mustaqil metodik fikrlashini cheklab qo'yishi mumkin. Shu sababli pedagogik ta'lim jarayonida talabalarga tayyor yechimlarni berishdan ko'ra, ularni mustaqil yechim izlashga, turli variantlarni taqqoslashga, ijodiy topshiriqlar yaratishga va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishga yo'naltirish zarur.



Nostandart topshiriqlar ana shu jarayonda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular talabalarning faqat bilimni tekshirishga emas, balki ularning fikrlash jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Oddiy topshiriqlarda ko'pincha bitta aniq javob talab etilsa, nostandart topshiriqlarda bir nechta yechim, turli yondashuv va muqobil fikrlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu esa talabalarni mustaqil tahlil qilish, o'z fikrini asoslash, xato va kamchiliklarni ko'ra olish, yangi usullar taklif qilish kabi faoliyat turlariga jalb etadi.

Muhokama jarayonida alohida ta'kidlash lozimki, kreativ tafakkur o'z-o'zidan shakllanadigan sifat emas. U maqsadli tashkil etilgan ta'limiy muhit, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar, erkin fikr bildirish imkoniyati va refleksiv faoliyat orqali rivojlanadi. Agar talaba dars jarayonida faqat ma'lumotni eslab qolish, qayta aytib berish va tayyor namunani takrorlash bilan cheklansa, unda kreativ tafakkur yetarli darajada shakllanmaydi. Aksincha, talaba o'ziga berilgan topshiriqni tahlil qilsa, unga yangicha yondashsa, o'quvchi yoshiga moslashtirsa, turli metodlar bilan boyitsa, uning kasbiy-metodik ijodkorligi bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Nostandart topshiriqlar metodikasining samaradorligi, avvalo, ularning mazmuni va qo'llanish sharoitiga bog'liq. Bunday topshiriqlar talabalarning bilim darajasi, kasbiy tayyorgarligi, psixologik xususiyatlari va metodik ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak. Agar topshiriq juda sodda bo'lsa, u ijodiy fikrlashni faollashtirmaydi. Agar haddan tashqari murakkab bo'lsa, talabalarda qiyinchilik, ishonchsizlik yoki passivlik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli nostandart topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirib borilishi, avval tahliliy, so'ng ijodiy, keyin esa loyihalash xarakteridagi topshiriqlarga o'tilishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular talabalarni real pedagogik faoliyatga yaqinlashtiradi. Masalan, "bir mavzuni uch xil metod orqali tushuntirish", "sust o'zlashtiruvchi o'quvchi uchun ijodiy topshiriq ishlab chiqish", "matematika mavzusini ertak yoki o'yin orqali yoritish", "o'qish savodxonligi darsida muammoli savollar tizimini tuzish" kabi topshiriqlar talabalarda amaliy-metodik fikrlashni rivojlantiradi. Bunday faoliyat kelajakdagi dars jarayonida turli o'quvchi ehtiyojlariga moslashish, individual yondashuvni amalga oshirish va ta'limni qiziqarli tashkil etish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi nafaqat o'quvchilarga dastlabki bilimlarni beruvchi, balki ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, bilishga qiziqishi va shaxsiy faolligini shakllantiruvchi asosiy pedagogik subyektdir. Shu sababli bo'lajak o'qituvchining o'zida kreativ tafakkur, metodik moslashuvchanlik va nostandart pedagogik yechimlar topish qobiliyati yetarli darajada rivojlangan bo'lishi zarur.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, nostandart topshiriqlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishda samarali metodik vosita sifatida xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar talabalarni tayyor bilimlarni takrorlashdan ko'ra, mustaqil izlanish, muammoni tahlil qilish, turli yechimlarni ilgari surish, o'z fikrini asoslash va pedagogik vaziyatlarga ijodiy yondashishga undaydi. Ayniqsa, muammoli, ijodiy, mantiqiy, integrativ va refleksiv topshiriqlar talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nostandart topshiriqlarni ta'lim jarayonida samarali qo'llash uchun ularni maqsadli, bosqichma-bosqich va metodik jihatdan asoslangan holda tashkil etish lozim. Bunda topshiriqlarning talaba bilim darajasiga mosligi, ochiq xarakterga ega bo'lishi, bir nechta yechim variantlariga imkon yaratishi, real pedagogik vaziyatlar bilan bog'lanishi va refleksiv tahlil bilan yakunlanishi muhimdir. Ana shunday yondashuv talabalarda nafaqat kreativ tafakkurni, balki metodik kompetentlik, kasbiy mustaqillik, kommunikativ faollik va innovatsion pedagogik qarashlarni ham rivojlantiradi.

Tadqiqot mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, nostandart topshiriqlar metodikasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim talablariga mos, ijodkor, tashabbuskor va refleksiv fikrlaydigan mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu metodika orqali talabalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos topshiriqlar tuzish, dars jarayonini qiziqarli tashkil etish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash va o'quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish ko'nikmalarini egallaydilar.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlardan foydalanish pedagogik ta'lim jarayonining sifatini oshiradi. Bu jarayon talabalarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi, ijodiy yondashuvini shakllantiradi, kasbiy-metodik faoliyatga tayyorgarligini mustahkamlaydi va ularni kelajakda o'quvchilarda ham kreativ fikrlashni rivojlantira oladigan malakali pedagog sifatida shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2006.
5. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2004.
6. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2008.
7. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
8. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Xoliqberdiyev K.M. Pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2001.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
10. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. - Москва: Интор, 1996.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.